

“RO‘YXATGA OLINGAN”

Angren shahar Davlat xizmatlari
Markazi tomonidan
2025-yil “4” “*avgust*” da
2901293 - son
reestr raqami bilan

“TASDIQLANGAN”



“O‘zbekko‘mir” AJ
aksiyadorlarining 2025-yil
“4” iyun dagi
umumiy yig‘ilish qarori
bilan

**“O‘ZBEKKO‘MIR”
aksiyadorlik jamiyati
USTAVI
(Yangi tahrirda)**

I. UMUMIY QOIDALAR

1.1. Ushbu Ustav O‘zbekiston Respublikasining 6.05.2014-yildagi “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi O‘RQ-370-sonli Qonuni, 3.06.2015-yildagi “Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida”gi O‘RQ-387-sonli Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.04.2015-yildagi “Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4720-sonli Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 28.07.2015-yildagi “Davlat ulushi bo‘lgan aksiyadorlik jamiyatlari va boshqa xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlar faoliyati samaradorligini baholash mezonlarini joriy etish to‘g‘risida”gi 207-sonli Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 17.10.2016 yildagi “Davlat ulushi ustivor bo‘lgan aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2635-sonli Qarori, va boshqa Qonun hujjatlari asosida ishlab chiqilgan.

1.2. O‘zbekiston ko‘mir sanoati tashkil topishi ikkinchi jahon urushi boshlanguniga qadar ochilgan Markaziy Osiyodagi eng yirik Angren konining sanoat o‘zlashtirilishi boshlanishiga to‘g‘ri keladi. Kondan foydalanish 1940-1943- yillarda oltita shaxta bilan yerosti usulida boshlangan. Ko‘mir ochiq koni qurilishi 1941-yilda boshlangan. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 27-maydagi 271-sonli “O‘zbekiston Respublikasi ko‘mir sanoatini boshqarish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori bilan “Sredazugol” ishlab chiqarish birlashmasi “Ugol” AJga aylantirilgan. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 21-iyundagi 290-sonli qarori bilan “Ugol” AJ 2004-yil 1-oktabrdan “Angrenskiy” karerining filiali sifatida bir qator OAJ va DKLarni qo‘shib, “O‘zbekko‘mir” OAJ ga aylantirilgan. 2014-yil 28-avgustdagi 289-sonli buyruq asosida ko‘mir qazib olish va sotish bo‘yicha ochiq aksiyadorlik jamiyati yana “O‘zbekko‘mir” aksiyadorlik jamiyatiga qayta nomlangan.

1.3. Jamiyatning rasmiy nomi:

a) Davlat tilida:

to‘liq nomi: “**Ўзбеккўмир**” акциядорлик жамияти (kirill alifbosida);

“O‘zbekko‘mir” aksiyadorlik jamiyati (lotin alifbosida);

qisqartirilgan nomi: “**Ўзбеккўмир**” АЖ (kirill alifbosida);

“O‘zbekko‘mir” AJ (lotin alifbosida).

b) Rus tilida:

to‘liq nomi: **Акционерное общество “Узбекуголь”**;

qisqartirilgan nomi - **АО “Узбекуголь”**.

v) Ingliz tilida:

to‘liq nomi: **joint-stock company “Uzbekcoal”**;

qisqartirilgan nomi: **JSC “Uzbekcoal”**.

1.4. Jamiyatning joylashgan joyi (pochta manzili): 102500, O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent viloyati, Angren shahri, Istiqlol ko‘chasi, 1-uy.

1.5. Jamiyatning elektron pochta manzili: info@coal.uz.

1.6. Jamiyatning rasmiy veb-sayti: www.uzbekcoal.uz.

1.7. “O‘zbekko‘mir” aksiyadorlik jamiyati (keyingi o‘rinlarda – “**Jamiyat**” deb yuritiladi) o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasining O‘zbekiston Respublikasi

Konstitutsiyasi, Oliy Majlis Palatasining qarorlari, Fuqarolik Kodeksi, Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining qaror va farmoyishlari, me'yoriy-huquqiy hujjatlarga, Jamiyat aksiyadorlarining umumiy yig'ilish qarorlariga va ushbu ustav talablariga muvofiq olib boradi.

1.8. Jamiyat yuridik shaxs bo'lib, o'z mustaqil balansida hisobga olinadigan alohida mol-mulkka, shu jumladan o'zining ustav kapitaliga berilgan mol-mulkka ega bo'ladi, o'z nomidan banklarda milliy va xorijiy valyutada hisobvaraqlarga, mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'ladi, sudda, iqtisodiy, hakamlik va boshqa sudlarida da'vogar va javobgar bo'lishi mumkin.

1.9. Jamiyat davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran yuridik shaxs maqomiga ega bo'ladi. Jamiyat faoliyat ko'rsatish muddati cheklanmagan muddatga tashkil etiladi.

1.10. Jamiyatning mol-mulki unga mulk huquqi asosida tegishli bo'lib, Jamiyat aksiyalarini joylashtirishdan tushgan mablag'lar, asosiy jamg'armalar va aylanma mablag'lar, ko'char va ko'chmas mulklar, qimmatli qog'ozlar, olingan daromad, qonun hujjatlari bilan ta'qiqlanmagan boshqa asoslarda olingan barcha mol-mulklardan tashkil topadi.

1.11. Jamiyat mas'uliyati cheklangan Jamiyat shaklidagi sho'ba va tobe xo'jalik Jamiyatlariga, filiallariga ega bo'lishi mumkin.

1.12. "Apartak" MChJ "O'zbekko'mir" AJning "Appartak ko'mir koni" filialiga aylantirilganligi sababli Jamiyat "Apartak" MChJning barcha huquqlari va majburiyatlari bo'yicha huquqiy vorisi hisoblanadi.

1.13. Jamiyat o'zining nomi yozilgan shtamp, muhri va blankalarga, o'z timsoliga shuningdek belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan tovar belgisiga hamda fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining, tovarlarning, ishlarning va xizmatlarning xususiy alomatlarini aks ettiruvchi boshqa vositalarga ega bo'lishga haqli.

1.14. Jamiyat o'z majburiyatlari yuzasidan o'ziga tegishli barcha mol-mulk bilan javobgar bo'ladi.

1.15. Jamiyat o'z aksiyadorlarining majburiyatlari yuzasidan javobgar bo'lmaydi.

1.16. Jamiyat barcha aksiyadorlariga nisbatan ularning ulushlari, daromadlar darajasi, jinsi, irqi, dini, millati, tili, ijtimoiy kelib chiqishi, shaxsi va ijtimoiy mavqedan qat'i nazar teng munosabatni ta'minlaydi.

II. JAMIYAT FAOLIYATINING SOHASI VA MAQSADI

2.1. Jamiyat tijorat tashkiloti bo'lib, uning asosiy maqsadi moliyaviy-ho'jalik faoliyatidan foyda olishdir.

2.2. Jamiyat asosiy maqsadiga erishish uchun faoliyat va xizmat ko'rsatishing quyidagi turlarini amalga oshiradi:

- Respublika iqtisodiyoti va aholisining ehtiyojlarini ta'minlash maqsadida, mavjud foydali qazilmalardan unumli foydalanish hisobiga, balansda belgilangan miqdorda ko'mir qazib olishni ta'minlash;

- ko'mir, ruda va norudaviy foydali yo'ldosh qazilmalarni qidirish, qazib chiqarish, boyitish va qayta ishlash;

- ilmiy - tadqiqot va loyiha ishlarini tashkil qilish, ko'mir sanoatida texnik siyosatni amalga oshirish, ijtimoiy vazifalarni hal qilish;

- jahon bozorida raqobatbardosh mahsulotlarini ishlab chiqarish sur'atlarini har tomonlama oshirish;
 - tayyor mahsulotni sotish, jumladan eksport qilish;
 - bozor kon'yukturasi va mahsulotlar marketingidan kelib chiqqan holda ishlab chiqarishning rivojlanish strategiyasini belgilash;
 - ko'mir tarmog'ining investitsiya siyosati sohasiga takliflar ishlab chiqish va loyixalarni amalga oshirish uchun chet el investitsiyalarini jalb etish;
 - zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini va dasturiy mahsulotlarni keng joriy etish, ushbu asosda boshqaruv samaradorligini oshirilishini, ishlab chiqarish xarajatlari va ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxi kamaytirilishini, uning raqobatbardoshligi, shuningdek Jamiyat moliya-xo'jalik faoliyatining shaffofligini kuchaytirilishini ta'minlash;
 - Jamiyatda kadrlar siyosatini mustahkamlash, texnik-muhandislar va boshqaruv kadrlar malakasini oshirish ularni qayta tayyorlashni tashkillashtirish;
 - tizim osti korxonalarda mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasiga doir ishlarni amalga oshirish;
 - Jamiyat ko'mir konlarini o'zlashtirishning tajribaviy va sanoatda foydalanish loyihalarini, texnologik haritalarni hamda yangi ob'ektlar qurilish loyihalarini ishlab chiqarish, geologiya-qidiruv ishlari loyixalarini tasdiqlash va ekspertizadan o'tkazish, ko'mir qazib chiqarish tarmog'ini kengaytirish, qayta ta'mirlash va texnik qayta jihozlash;
 - xorijiy bank va kompaniyalardan sohani rivojlantirish uchun kredit olishni tashkil qilish;
 - ta'minot - sotish faoliyati;
 - tovar va xizmatlar eksport-importi;
 - servis xizmatlari;
 - qonunchilikda man etilmagan boshqa faoliyat turlarini o'rnatilgan tartibda amalga oshirishi mumkin.
- Maxsus litsenziya (ruxsatnoma) olishni talab qiladigan faoliyat turlari qonunchilikda belgilangan tartibda litsenziya olingandan keyin amalga oshiriladi.

III. JAMIYAT USTAV KAPITALINING MIQDORI

3.1. Jamiyatning ustav kapitali aksiyadorlar olgan Jamiyat aksiyalarining nominal qiymatidan tashkil topadi va O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasida ifodalanadi. Jamiyat tomonidan chiqarilgan barcha aksiyalarning nominal qiymati bir xil bo'lishi kerak.

3.2. Jamiyat oddiy aksiyalar bilan birga imtiyozli aksiyalarni joylashtirishga haqli.

3.3. Jamiyatning ustav kapitali 185.773.565.000,00 (Bir yuz sakson besh milliard yetti yuz yetmish uch million besh yuz oltmish besh ming) so'mni tashkil qiladi. U har birining nominal qiymati 1.000,00 (Bir ming) so'm bo'lgan 184.302.515 (Bir yuz sakson to'rt million uch yuz ikki ming besh yuz o'n besh) dona oddiy va 1.471.050 (Bir million to'rt yuz yetmish bir ming ellik) dona imtiyozli aksiyalarga bo'lingan.

Jamiyatning ustav kapitalini ko'paytirish.

3.4. Jamiyatning ustav kapitali qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish yo'li bilan ko'paytirilishi mumkin.

3.5. Qo'shimcha aksiyalar Jamiyat tomonidan ushbu ustavda belgilangan e'lon qilingan aksiyalar soni doirasidagina joylashtiriladi.

3.6. Jamiyat ustav kapitalini oshirish maqsadida joylashtirilgan aksiyalariga qo'shimcha ravishda chiqarishi mumkin bo'lgan e'lon qilingan aksiyalari miqdori - nominal qiymati 1.000,00 (Bir ming) so'm so'm bo'lgan 642.774.125 (Olti yuz qirq ikki million yetti yuz yetmish to'rt ming bir yuz yigirma besh) dona oddiy va 10.000.000 (O'n million) dona imtiyozli aksiyalardan iborat.

3.7. Qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish yo'li bilan ko'paytirish to'g'risidagi qarorda joylashtiriladigan qo'shimcha aksiyalarning umumiy qiymati, soni, turi, nominal qiymati, joylashtirish tartibi, usuli, muddati, joylashtirish (aksiyalarning birja va uyushgan birjadan tashqari bozoriga chiqarish) narhi, aksiyalar uchun to'lov tartibi, joylashtirilishini amalga oshmagan deb topish va joylashtirish amalga oshmagan deb topilgan taqdirda aksiyalar uchun qabul qilingan to'lov vositalarini qaytarish tartibi belgilanadi.

3.8. Jamiyatning ustav kapitalini ko'paytirish to'g'risidagi va jamiyat ustaviga tegishli o'zgartishlar kiritish haqidagi qarorlar aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan yoki, Jamiyatning Kuzatuv kengashi tomonidan qabul qilinadi.

3.9. Jamiyatning tegishli boshqaruv organi tomonidan qabul qilingan qo'shimcha aksiyalarni chiqarish haqidagi qaror Jamiyatning ustav kapitalini ko'paytirish to'g'risidagi qarordir.

3.10. Jamiyatning ustav kapitalini ko'paytirish jalb qilingan investitsiyalar, jamiyatning o'z kapitali va hisoblangan dividendlar hisobidan qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshirilishi mumkin. Jamiyatning ustav kapitalini uning o'z kapitali hisobidan ko'paytirishda qo'shimcha aksiyalar barcha aksiyadorlar o'rtasida taqsimlanadi. Bunda har bir aksiyadorga qaysi turdagi aksiyalar tegishli bo'lsa, ayni o'sha turdagi aksiyalar unga tegishli aksiyalar soniga mutanosib ravishda taqsimlanadi. Jamiyatning ustav kapitali ko'paytirilishi natijasida ko'paytirish summasining bitta aksiyaning nominal qiymatiga muvofiqligi ta'minlanmaydigan bo'lsa, Jamiyatning ustav kapitalini ko'paytirishga yo'l qo'yilmaydi.

Jamiyat ustav kapitalini kamaytirish.

3.11. Jamiyatning ustav kapitali aksiyalarning nominal qiymatini kamaytirish yoki aksiyalarning umumiy sonini qisqartirish yo'li bilan, shu jumladan aksiyalarning bir qismini keyinchalik bekor qilgan holda Jamiyat tomonidan aksiyalarni olish yo'li bilan kamaytirilishi mumkin.

Jamiyatning ustav kapitalini kamaytirish to'g'risidagi va Jamiyat ustaviga tegishli o'zgartishlar kiritish haqidagi qarorlar aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilinadi.

3.12. Jamiyatning ustav kapitalini aksiyalarning bir qismini olish va bekor qilish yo'li bilan kamaytirishga yo'l qo'yiladi.

3.13. Jamiyatning ustav kapitalini kamaytirish to'g'risida qaror qabul qilinayotganda aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi ustav kapitalini kamaytirish sabablarini ko'rsatadi va uni kamaytirish tartibini belgilaydi.

IV. JAMIYATNING AKSIYALARI, OBLIGATSIYALARI VA BOSHQA QIMMATLI QOG'OZLARI.

4.1. Jamiyatning qimmatli qog'ozlarini chiqarish, ro'yxatdan o'tkazish, joylashtirish va ular bo'yicha hisob-kitob, shuningdek aksiyalarga bo'lgan

huquqlarning o'tish tartibi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va ushbu ustav asosida amalga oshiriladi.

4.2. Jamiyat aksiyalarini, obligatsiyalarini va O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi bilan ta'qiqlanmagan boshqa qimmatli qog'ozlarni chiqarishga xaqli.

4.3. Jamiyat qonunchilikka muvofiq korporativ obligatsiyalarni va boshqa qimmatli qog'ozlarni chiqarishga hamda joylashtirishga xaqli. Jamiyat tomonidan korporativ obligatsiyalarni chiqarish Kuzatuv kengashining qaroriga muvofiq amalga oshiriladi.

4.4. Jamiyat tomonidan jamiyat Kuzatuv kengashining qaroriga ko'ra aksiyalarga ayirboshlanadigan korporativ obligatsiyalar chiqarilgan taqdirda, mazkur qaror jamiyat Kuzatuv kengashining barcha a'zolari tomonidan bir ovozdan qabul qilinishi kerak.

4.5. Jamiyat tomonidan aksiya va boshqa qimmatli qog'ozlarning joylashtirilishi quyidagi ko'rinishda amalga oshirilishi mumkin:

- qimmatli qog'ozlarni yopiq obuna ko'rinishida joylashtirish (ommaviy e'lon va reklama kompaniyasini o'tkazmasdan, avvaldan ma'lum bo'lgan soni cheklangan investorlar o'rtasida yopiq obuna);

- qimmatli qog'ozlarni ochiq obuna ko'rinishida joylashtirish (reklamadan foydalangan holda soni cheklanmagan investorlar o'rtasida ochiq obuna).

4.6. Jamiyat tomonidan aksiyalarni va aksiyalarga ayirboshlanadigan, xaqi pul mablag'lari bilan to'lanadigan emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni joylashtirishda ovoz beruvchi aksiyalarning egalari bo'lgan aksiyadorlar ularni imtiyozli olish huquqiga ega bo'ladilar.

4.7. Jamiyat o'zi joylashtirgan aksiyalarini aksiyadorlar umumiy yig'ilishining joylashtirilgan aksiyalarning bir qismini olish va ushbu aksiyalarning umumiy sonini qisqartirish yo'li bilan jamiyat ustav kapitalini kamaytirish to'g'risidagi qaroriga ko'ra, shuningdek, ularni keyinchalik qonunchilikda belgilangan me'yor va cheklovlarni hisobga olgan holda olishga xaqli.

Aksiyalar to'lovi ularni sotib olish vaqtida, milliy valyutadagi pul mablag'lari bilan amalga oshiriladi.

Imtiyozli aksiyalarni sotib olish, Jamiyat Kuzatuv kengashi tomonidan belgilangan, biroq uning nominal qiymatidan kam bo'lmagan narxda amalga oshiriladi.

4.8. Jamiyat joylashtirilgan aksiyalarni yiriklashtirishni yoki mayladalashni amalga oshirishga xaqli. Bunda ushbu ustavga Jamiyat joylashtirilgan aksiyalarining nominal qiymatida va soniga talluqli o'zgartirishlar kiritiladi.

V. JAMIYAT FOYDASINI (ZARARINI) TAQSIMLASH VA DIVIDEND HISOBLASH TARTIBI.

5.1. Amaldagi qonunchilikka asosan budjetga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'langanidan so'ng Jamiyat ihtiyorida qoladigan sof foyda, shuningdek o'tgan davrdagi taqsimlanmagan sof foyda Kuzatuv kengash tavsiyasi asosida aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan taqsimlanadi.

5.2. Jamiyat zararini qoplash aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qarori asosida zaxira fondi mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

5.3. Dividend foydaning aksiyadorlar o'rtasida taqsimlanadigan qismidir.

5.4. Aksiyalarning har bir turi bo'yicha dividendlar to'lash, dividendning miqdori, uni to'lash shakli va tartibi to'g'risidagi qaror Jamiyat Kuzatuv kengashining

tavsiyasiga asosan, moliyaviy hisobotning ishonchliligi haqida auditorlik xulosasi mavjud bo'lgan taqdirda, moliyaviy hisobot ma'lumotlari asosida aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilinadi. Bunda, dividendlarning miqdori Jamiyat Kuzatuv kengashi tomonidan tavsiya etilgan miqdordan ko'p bo'lishi mumkin emas, to'lash muddati shunday qaror qabul qilingan kundan e'tiboran 60 (Oltmish) kundan kech bo'lmasligi lozim.

5.5. Dividendlarni to'lash muddati va tartibi aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qarorida belgilanadi. Dividendlarni to'lash muddati shunday qaror qabul qilingan kundan etiboran 60 (Oltmish) kundan kech bo'lmasligi lozim.

5.6. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi ushbu ustavda dividend miqdori belgilab qo'yilgan imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lamaslik to'g'risida, to'liq bo'lmagan miqdorda dividendlar to'lash haqida qaror qabul qilishga xaqli.

5.7. Moliyaviy yilning birinchi choragi, yarim yilligi va to'qqiz oyi natijalariga ko'ra (oraliq) dividendlar Jamiyat Kuzatuv kengashi yoki aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qaroriga ko'ra bo'nak sifatida to'lanishi mumkin. Moliyaviy yil yakuni bo'yicha dividend hisoblanishida bo'nak sifatida to'langan oraliq dividendlar inobatga olinadi.

5.8. Dividendlarni to'lash manbai bo'lib, Jamiyatning budjetga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'langanidan so'ng Jamiyat ixtiyorida qoladigan sof foyda hisoblanadi.

5.9. Dividendlarni to'lash chog'ida birinchi navbatda imtiyozli aksiyalar bo'yicha, so'ngra oddiy aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lanadi. Imtiyozli aksiyalar bo'yicha qat'iy belgilangan dividendlarni to'lash uchun yetarli miqdorda foyda mavjud bo'lgan taqdirda Jamiyat mazkur aksiyalarning egalariga dividendlar to'lashni rad etishga haqli emas. Jamiyat rad etgan taqdirda aksiyadorlar dividendlar to'lanishini sud tartibida talab qilishi mumkin. Jamiyat yetarli miqdorda foydaga ega bo'lmagan yoki zarar ko'rib ishlayotgan taqdirda, imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendlar Jamiyat tomonidan Jamiyatning faqat shu maqsad uchun tashkil etilgan zaxira fondi hisobidan va ushbu fond doirasida to'lanishi mumkin.

5.10. Bitta imtiyozli aksiyaga to'lanadigan dividend miqdori aksiya nominal qiymatining 25% (Yigirma besh foizini) tashkil qiladi.

5.11. Jamiyat tomonidan oddiy aksiyalar bo'yicha hisoblangan dividendlarni to'lash aksiyadorlarning dividendlarini olishga bo'lgan teng huquqlariga rioya etilgan holda amalga oshiriladi.

5.12. Oddiy aksiyalarga to'lanadigan dividend miqdori aksiyadorlar umumiy yig'ilishida belgilanadi.

5.13. Agar yil yakuni bo'yicha oddiy aksiyalarga to'lanadigan dividend miqdori imtiyozli aksiyalarga to'lanadigan dividend miqdoridan ko'p bo'lsa to'lovlar aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qaroriga asosan birmuncha yuqori foiz stavkalarida to'lanishi mumkin.

5.14. Jamiyat yetarli miqdorda foydaga ega bo'lmagan yoki zarar ko'rgan taqdirda, imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendlar Jamiyatning faqat shu maqsad uchun tashkil etilgan zahira fondi hisobidan va shu fond doirasida ham to'lanishi mumkin.

5.15. Dividend pul mablag'lari yoki boshqa qonuniy to'lov vositalari yoxud Jamiyatning qimmatli qog'ozlari bilan to'lanishi mumkin. Jamiyatning imtiyozli aksiyalari bo'yicha dividendlarni qimmatli qog'ozlar bilan to'lashga yo'l qo'yilmaydi.

5.16. Dividend olish huquqiga ega aksiyadorlarga dividendlarni to'lash to'g'risida qaror qabul qilingan aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish uchun 3 (Uch) kun avval shakllantirilgan Jamiyat aksiyadorlarining reestrída qayd etilgan aksiyadorlar ega.

5.17. Jamiyat:

- Jamiyat ustav kapitalining hammasi uning ta'sis etilishi chog'ida to'liq to'lab bo'linguniga qadar;

- agar dividendlar to'lanadigan paytda Jamiyatda bankrotlik belgilari mavjud bo'lsa yoki Jamiyatda shunday belgilar dividendlarni to'lash natijasida paydo bo'lsa;

- agar Jamiyat sof aktivlarining qiymati uning ustav kapitali va zaxira fondi summasidan kam bo'lsa, aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lash to'g'risida qaror qabul qilishga hamda dividendlar to'lashga haqli emas.

Ushbu ko'rsatilgan holatlar tugatilgach. Jamiyat hisoblangan dividendlarni aksiyadorlarga to'lashi shart.

5.18. Jamiyat dividendlarning miqdori ulardan undiriladigan soliqlarni inobatga olmagan holda e'lon qiladi. Jamiyat to'lanadigan dividendlar miqdori to'g'risidagi ma'lumotlarni Korporativ axborot yagona portalida va Jamiyatning veb-saytida qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda e'lon qiladi.

VI. JAMIYATNING ZAXIRA FONDI VA BOSHQA FONDLARNI SHAKLLANTIRISH.

6.1. Jamiyat sof foyda hisobidan zaxira fondini hamda aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida aniqlanadigan, Jamiyat faoliyati uchun zarur bo'lgan boshqa jamg'armalarni tashkil etadi.

6.2. Jamiyatning zaxira fondi, boshqa mablag'lar mavjud bo'lmagan taqdirda, Jamiyatning zararlari o'rnini qoplash, Jamiyatning korporativ obligatsiyalarini muomaladan chiqarish, imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lash va Jamiyatning aksiyalarini qaytarib sotib olish uchun mo'ljallanadi. Zaxira fondidan boshqa maqsadlarda foydalanish mumkin emas.

6.3. Jamiyat ustav kapitalining 15% (O'n besh foizdan) kam bo'lmagan miqdorda Jamiyat zaxira fondi tuziladi va shu miqdorga yetguniga qadar, har yili sof foydaning 5% (Besh foizdan) kam bo'lmagan miqdorda ajratmalar o'tkazadi.

6.4. Jamiyat qonunchilikda belgilangan boshqa jamg'armalarni ham tashkil etishi mumkin.

VII. JAMIYAT BOSHQARUVINIIG TUZILMASI

7.1. **Quyidagilar Jamiyat boshqaruv organlari hisoblanadi.**

7.1.1. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi – Jamiyatning oliy boshqaruv organi;

7.1.2. Kuzatuv kengashi - Jamiyat faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshiruvchi organ;

7.1.3. Ijroiya organi - Jamiyatning kundalik faoliyatiga rahbarlik qiluvchi kollegial ijroiya organi;

7.1.4. Ijroiya organining rahbari - bosh direktor Jamiyatning kundalik faoliyatiga tezkor rahbarlikni amalga oshiruvchi shaxs.

7.2. **Quyidagilar Jamiyatning nazorat qiluvchi organlari hisoblanadi.**

7.2.1. Jamiyatning ichki audit xizmati – Jamiyatning Ijroiya organi, filiallari ishini nazorat qilishni va baholashni amalga oshiradi;

7.2.2. Korporativ maslaxatchi – Jamiyatda korporativ qonun xujjatlarga rioya etilishi ustidan nazorat qiluvchi mutaxassis;

7.2.3. Ichki nazorat “Komplaens” xizmati;

7.2.4. Minoritar aksiyadorlar qo‘mitasi – minoritar aksiyadorlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida tashkil qilinadigan organ.

7.2.5. Jamiyat aksiyalari fond birjasining birja kotirovkasi varag‘iga kiritilgan Jamiyat, Jamiyat Kuzatuv kengashining a‘zolaridan tashkil topgan qo‘mitalar tashkil etishi lozim. Qo‘mitalarni shakllantirish va ularning ishlash tartibi, soni va tarkibi Jamiyat Kuzatuv kengashi to‘g‘risidagi nizomda belgilanadi.

VIII. AKSIYADORLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI.

8.1. Jamiyat aksiyadorlari qonunchilikka muvofiq huquqlarga ega:

- Jamiyat aksiyadorlarining reestriga kiritilish;
- depo hisobvarag‘idan o‘ziga taalluqli ko‘chirma olish;
- Jamiyat foydasining bir qismini dividendlar tarzida olish;
- Jamiyat tugatilgan taqdirda o‘zlariga tegishli ulushga muvofiq mol-mulkning bir qismini olish;
- aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishlarida ovoz berish orqali Jamiyatni boshqarishda ishtirok etish;
- Jamiyatning moliya-xo‘jalik faoliyati natijalari to‘g‘risida to‘liq va ishonchli axborotni belgilangan tartibda olish;
- olgan dividendini erkin tasarruf etish;
- qimmatli qog‘ozlar bozorini tartibga solish bo‘yicha vakolatli davlat organida, shuningdek sudda o‘z huquqlarini himoya qilish;
- o‘ziga yetkazilgan zararining o‘rnini qoplanishini belgilangan tartibda talab qilish;
- o‘z manfaatlarini ifodalash va himoya qilish maqsadida uyushmalarga va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlariga birlashish;
- Jamiyat aksiyadorlari (ishtirokchilari) o‘rtasida ularning huquqlarini amalga oshirish to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksida belgilangan tartibda korporativ shartnoma tuzish;
- qimmatli qog‘ozlarni olishda zarar ko‘rish, shu jumladan boy berilgan foyda ehtimoli bilan bog‘liq tavakkalchiliklarni sug‘urta qilish huquqiga ega.

Aksiyadorlar qonunchilikka va Jamiyat ustaviga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

8.2. Oddiy aksiyalarning egalari bo‘lgan aksiyadorlar O‘zbekiston Respublikasi “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarni himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunga va Jamiyat ustaviga muvofiq aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishida mazkur yig‘ilish vakolatiga kiradigan barcha masalalar bo‘yicha ovoz berish huquqi bilan ishtirok etishi mumkin, shuningdek dividendlar olish, Jamiyat tugatilgan taqdirda esa, o‘zlariga tegishli ulushga muvofiq Jamiyat mol-mulkining bir qismini olish huquqiga ega.

8.3. Imtiyozli aksiyalarning egalari bo‘lgan aksiyadorlar, agar O‘zbekiston Respublikasi “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarni himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunda va Jamiyat ustavida boshqacha qoida belgilanmagan bo‘lsa, aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishida ovoz berish huquqiga ega emas.

8.4. Jamiyatning imtiyozli aksiyalari ularning egalari bo'lgan aksiyadorlarga bir xil hajmda huquqlar beradi va oddiy aksiyalar bilan bir xil nominal qiymatga ega bo'ladi.

8.5. Imtiyozli aksiyalarning egalari bo'lgan aksiyadorlar aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida Jamiyatni qayta tashkil etish va tugatish to'g'risidagi masalalar hal etilayotganda ovoz berish huquqi bilan ishtirok etadi. Imtiyozli aksiyalarning egalari bo'lgan aksiyadorlar aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida Jamiyat ustaviga imtiyozli aksiyalarning egalari bo'lgan aksiyadorlarning huquqlarini cheklaydigan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi masalalar, hal etilayotganda ovoz berish huquqini oladi.

8.6. Imtiyozli aksiyalarning egalari bo'lgan aksiyadorlar aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi vakolat doirasiga kiradigan masalalar bo'yicha ovoz berish huquqi bilan aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etish huquqiga imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lash to'g'risida qaror qabul qilmagan yoki dividendlarni to'liq to'lamaslik to'g'risida qaror qabul qilingan aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishidan keyingi yig'ilishdan boshlab ega bo'ladi. Imtiyozli aksiyalarning egalari bo'lgan aksiyadorlarning aksiyadorlar umumiy yig'ilishida ishtirok etish huquqi mazkur aksiyalar bo'yicha dividendlar birinchi marta to'liq miqdorda to'langan paytdan e'tiboran bekor qilinadi.

8.7. Jamiyatning imtiyozli aksiyalarini oddiy aksiyalarga ayrboshlash mumkin emas.

8.8. Jamiyat tugatilayotganda imtiyozli aksiyalar bo'yicha to'lanadigan qiymat (tugatilish qiymati) imtiyozli aksiyalarning nominal qiymatining 100% (Yuz foizini) tashkil qiladi.

8.9. Jamiyat aksiyadorlari o'z huquqlarini amalga oshirganlarida quyidagi majburiyatga egadirlar:

- O'zbekiston Respublikasi "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarni himoya qilish to'g'risida"gi Qonunga va Jamiyat ustavi qoidalariga rioya qilish;

- Jamiyat faoliyatiga oid mahfiy axborotlarni oshkor qilmaslik;

- o'z xatti-xarakatlari bilan Jamiyatga zarar va uning mavqeiga putur yetkazmaslik;

- boshqa aksiyadorlarning huquqlarini va qonun bilan himoyalangan manfaatlarini buzmaslik;

- aksiyador o'z aksiyalariga bo'lgan huquqlarni hisobga olish bo'yicha xizmatlar ko'rsatuvchi depozitariyni o'ziga oid ma'lumotlardagi o'zgarishlar haqida o'z vaqtida xabardor qilish.

IX. JAMIYAT AKSIYADORLARINIIG UMUMIY YIG'ILISHI

9.1. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi Jamiyatning yuqori boshqaruv organidir.

9.2. Jamiyat har yili aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini (aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishini) o'tkazishi shart. Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishi moliya yili tugaganidan keyin 6 (Olti) oydan kechiktirmay o'tkaziladi.

9.3. Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishidan tashqari o'tkaziladigan umumiy yig'ilishlari navbatdan tashqari yig'ilishlardir.

9.4. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini Kuzatuv kengashining raisi, u uzrli sabablarga ko'ra bo'lmagan taqdirda esa, Kuzatuv kengashining a'zolaridan biri olib boradi.

9.5. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining vakolat doirasiga quyidagilar kiradi:

- Jamiyat ustaviga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish yoki Jamiyatning yangi tahrirdagi ustavini tasdiqlash;
- Jamiyatni qayta tashkil etish;
- Jamiyatni tugatish, tugatuvchini (tugatish komissiyasini) tayinlash hamda oraliq va yakuniy tugatish balanslarini tasdiqlash;
- Jamiyat Kuzatuv kengashining va minoritar aksiyadorlar qo'mitasining son tarkibini belgilash, ularning a'zolarini saylash va a'zolarining vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish;
- Jamiyat ijroiya organini tuzish, uning rahbarini saylash (tayinlash) va rahbarning vakolatlarini muddatdan ilgari tugatish;
- e'lon qilingan aksiyalarning eng ko'p miqdorini belgilash;
- Jamiyat ustav kapitalini kamaytirish;
- aksiyalarni maydalash va yiriklashtirish;
- o'z aksiyalarini olish;
- Jamiyatning tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash;
- Jamiyatning korporativ qoidalariga rioya etish majburiyatlarini olish to'g'risida qaror qabul qilish va xabarni oshkor qilish shaklini tasdiqlash;
- Jamiyatning boshqaruv organlari to'g'risidagi, shu jumladan korporativ faoliyatga oid nizomlar, ichki nazorat, dividend siyosati to'g'risidagi, manfaatlar qarama-qarshiligi vaqtida harakat qilish tartibi to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash;
- Jamiyat ijroiya organiga to'lanadigan haq va/yoki kompensatsiyalarni, shuningdek ularning eng yuqori miqdorlarini Kuzatuv kengashi tomonidan maqullanganidan so'ng tasdiqlash;
- majburiy auditorlik tekshiruvini o'tkazish uchun auditorlik tashkilotini va uning xizmatlariga to'lanadigan haqning eng ko'p miqdorini belgilash;
- Jamiyatning yillik hisobotini tasdiqlash, shuningdek Jamiyat faoliyatining asosiy yo'nalishlari va maqsadidan kelib chiqqan holda Jamiyatni o'rta va uzoq muddatga rivojlantirishning aniq muddatlari belgilangan strategiyani tasdiqlash;
- Jamiyatning foydasi va zararlarini taqsimlash;
- elektron pochta orqali (elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan holda), shuningdek o'z vakolatini vakiliga berish yo'li bilan ovoz berish yoki umumiy yig'ilishni videokonferens-aloqa tarzida o'tkazish tartibini belgilash (tasdiqlash);
- xomiylik (xayriya) yoki beg'araz yordam ko'rsatish (olish) tartibi va shartlarini belgilash, ularni amalga oshirish bo'yicha qaror qabul qilish. Bunda, xomiylikka sarflanadigan xar yilgi xarajatlari o'tgan yilda olingan sof foydaning 3% (Uch foizidan) oshmasligi kerak hamda bu xarajatlar biznes-rejaning o'tgan hisobot davridagi sof foydaga taalluqli qismi ko'rsatkichlari bajarilganida hamda Kuzatuv kengashining tegishli tavsiyasi asosida amalga oshiriladi (bunda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumat qarorlarida nazarda tutilgan hollar mustasno);
- Jamiyat Kuzatuv kengashining o'z vakolat doirasiga kiradigan masalalar yuzasidan, shu jumladan Jamiyatni boshqarishga doir qonun hujjatlarida belgilangan

talablarga rioya etilishi yuzasidan Jamiyat Kuzatuv kengashining hisobotlarini eshitish;

-aksiyalarni va aksiyalarga ayirboshlanadigan qimmatli qog'ozlarni sotib olishda aksiyadorning imtiyozli huquqini qo'llamaslik to'g'risida qarorni qabul qilish;

-aksiyadorlar umumiy yig'ilishining reglamenti va sanoq komissiyasi tarkibini tasdiqlash;

-qonunchilikda belgilangan hollarda Jamiyat tomonidan yirik bitimlar va Jamiyat afillangan shaxslari bilan bitimlar tuzish to'g'risida qaror qabul qilish;

-Jamiyatning joriy ho'jalik faoliyatiga kiruvchi kelishuvlarni aniqlash;

-dividendlarni to'lash haqida qaror qabul qilish, aksiyalarning xar bir turi bo'yicha dividend miqdori, to'lov shakli va tartibini belgilash;

-qonun hujjatlariga muvofiq boshqa masalalarni hal etish.

9.6. Agar qabul qilinishi lozim bo'lgan qaror bo'yicha qonunchilikka va ushbu ustavga muvofiq Jamiyat Kuzatuv kengashining tavsiyasi yoki Kuzatuv kengashi tomonidan dastlabki tarzda maqullanishi lozim bo'lsa, bunday qarorlar Jamiyat aksiyadorlari umumiy yig'ilishi tomonidan shunday tavsiyalar olinganidan so'ng yoki dastlabki tarzda maqullanganidan so'ng qabul qilinadi.

9.7. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida saylangan Jamiyat Kuzatuv kengashi a'zosi mazkur yig'ilish bayonnomasida qaysi aksiyadorning vakili ekanligi yoki Kuzatuv kengashning qaysi a'zosi mustaqil a'zo ekanligi ko'rsatilishi kerak.

9.8. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishining vakolat doirasiga kiritilgan masalalar Jamiyatning ijroiya organi xal qilish uchun berilishi mumkin emas.

9.9. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishining vakolat doirasiga kiritilgan masalalar Jamiyatning Kuzatuv kengashi xal qilish uchun berilishi mumkin emas, qonun hujjatlarida ko'rsatilgan hollar bundan mustasno.

9.10. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishini tashkillashtirish va uning vakolatiga kiradigan masalalar bo'yicha qarorlar qabul qilish, qonunchilik va Jamiyatning "Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi to'g'risida"gi nizom bilan tartibga solinadi.

9.11. Aksiyador vakili tomonidan aksiyadorlar umumiy yig'ilishida ishtirok etishi va kun tartibidagi masalalar bo'yicha ovoz berish tartibi aksiyadorning o'zi bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi.

X. JAMIYAT KUZATUV KENGASHI

10.1. Jamiyat Kuzatuv kengashi Jamiyat faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshiradi, aksiyadorlar umumiy yig'ilishining vakolatiga talluqli masalalar bundan mustasno.

10.2. Jamiyat Kuzatuv kengashining a'zolari aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan **3 (Uch) yil muddatga** saylanadilar. Jamiyat Kuzatuv kengashi a'zolarining soni **9 (To'qqiz) kishidan iborat**.

10.3. Korporativ boshqaruv kodeksida aks ettirilgan mezonlariga muvofiq hamda aksiyalari fond birjasining birja kotirovkasi varag'iga kiritilgan Jamiyatning, shuningdek ustav kapitalida davlat ulushi 50 foizdan ortiq bo'lgan Jamiyatning Kuzatuv kengashi tarkibiga kamida 1 (Bir) nafar mustaqil a'zo kiritilishi kerak. Bunda nomzod ko'rsatish hamda Kuzatuv kengashining mustaqil a'zosi bo'yicha ovoz berish davlat vakillari tomonidan amalga oshiriladi.

10.4. Jamiyat Kuzatuv kengashi faoliyatining tartibi aksiyadorlarning umumiy yig'ilish qarori bilan tasdiqlangan "Kuzatuv kengashi to'g'risida"gi nizomda belgilab qo'yiladi.

10.5. Quyidagilar Kuzatuv kengashining mustaqil a'zosi bo'lishi mumkin emas:

- so'nggi 3 (Uch) yil ichida Jamiyatda va (yoki) Jamiyatning affillangan shaxslarida ishlagan shaxs;

- Jamiyat ovoz beruvchi aksiyalarining 5% (Besh foiz) yoki undan ortiq foiziga egalik qiluvchi (to'g'ridan-to'g'ri va (yoki) affillangan shaxslar orqali) aksiyador;

- Jamiyatning va (yoki) uning affillangan shaxsining yirik mijoz va (yoki) yirik yetkazib beruvchisi bilan fuqarolik-huquqiy munosabatlarda bo'lgan shaxs. Bunda qaysi shaxslar bilan bazaviy hisoblash miqdorining 2.000 (Ikki ming) baravaridan ko'p bo'lgan summaga teng amaldagi shartnoma mavjud bo'lsa, o'sha shaxslar yirik mijoz va yirik yetkazib beruvchi deb e'tirof etiladi;

- so'nggi 3 (Uch) yil ichida Jamiyatga va (yoki) Jamiyatning affillangan shaxslariga auditorlik xizmatlarini ko'rsatgan auditorlik tashkilotining xodimi;

- ketma-ket 6 (Olti) yil davomida Jamiyatning Kuzatuv kengashi tarkibiga kirgan shaxs;

- Jamiyat va (yoki) uning affillangan shaxslari bilan biror-bir kelishuvga ega bo'lgan shaxs, bundan Kuzatuv kengashi a'zosining vazifalari va funksiyalari bajarilishini ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan kelishuvlar mustasno;

- Jamiyatning boshqaruv va ichki nazorat organlarining va (yoki) uning affillangan shaxslarining a'zosi bo'lgan shaxsning yoki so'nggi 3 (Uch) yil ichida ularga a'zo bo'lgan shaxsning yaqin qarindoshi yoki quda tomondan qarindoshi (ota-onasi, aka-ukalari, opa-singillari, o'g'illari, qizlari, eri (xotini), shuningdek erining (xotinining) ota-onasi, aka-ukalari, opa-singillari va farzandlari) bo'lgan shaxs;

- davlat boshqaruvi organining yoki davlat korxonasining xodimi bo'lgan shaxs;

- Jamiyatning ustavida yoki aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qarorlari bilan tasdiqlangan hujjatlarda belgilangan talablarga muvofiq bo'lmagan shaxs.

- Jamiyat Jamiyatning Kuzatuv kengashi tarkibiga saylangan mustaqil a'zolarining reestrini yuritadi va uni o'z rasmiy veb-saytida e'lon qiladi.

- Jamiyat Kuzatuv kengashi mustaqil a'zolarining reestrini yuritish tartibi qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi tomonidan belgilanadi.

- Jamiyat Kuzatuv kengashining mustaqil a'zosi Kuzatuv kengashining boshqa a'zolari bilan bir qatorda ushbu Qonunda belgilangan teng huquqlar va majburiyatlarga ega bo'ladi.

10.6. Jamiyat Kuzatuv kengashining vakolat doirasiga quyidagilar kiradi:

- Jamiyatni rivojlantirish strategiyasiga erishish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar to'g'risida Jamiyat ijroiya organining hisobotini muntazam ravishda eshitib borgan holda Jamiyat faoliyatining ustuvor yo'nalishlarini belgilash;

- korporativ maslahatchini tayinlash va uning faoliyati tartibini belgilovchi nizomni tasdiqlash;

- aksiyadorlarning yillik va navbatdan tashqari umumiy yig'ilishlarini chaqirish, qonunchilikda nazarda tutilgan hollar mustasno;

- aksiyadorlar umumiy yig'ilishining kun tartibini tayyorlash va aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan sana, vaqt va joyni belgilash;

- ovoz berish byulletenining shakli va matnini tasdiqlash;

- aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkazilishi haqida xabar qilish uchun Jamiyat aksiyadorlarining reestrini shakllantirish sanasini belgilash;
- Jamiyat Ustaviga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish yoki Jamiyatning yangi tahrirdagi Ustavini tasdiqlash masalalarini hal qilishi uchun aksiyadorlarning umumiy yig'ilishiga kiritish;
- Jamiyat ustav kapitalini ko'paytirish hamda Jamiyatning e'lon qilingan aksiyalari sonini kamaytirish bilan bog'liq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi masalalarni tasdiqlash;
- mol-mulkning bozor qiymatini belgilashni tashkil etish;
- Jamiyatning kelgusi yilga mo'ljallangan yillik biznes-rejasini yilning 1-dekabrigacha tasdiqlash;
- ichki audit xizmatini tashkil etish va uning xodimlarini tayinlash, shuningdek har chorakda uning hisobotlarini eshitib borish;
- auditorlik tekshiruvini o'tkazish (majburiy auditorlik tekshiruvi bundan mustasno), auditorlik tashkilotini belgilash, uning xizmatlariga to'lanadigan eng ko'p haq miqdori va u bilan shartnoma tuzish (shartnomani bekor qilish) to'g'risida qaror qabul qilish;
- Jamiyatning ijroiya organiga to'lanadigan haq va mukofot miqdorini belgilash, bunda biznes-reja ko'rsatkichlari bajarilmagan yoki samaradorlikning muhim ko'rsatkichlari (SMK) yil yakunida "past" yoki "qoniqarsiz" deb baholangan taqdirda shuningdek, davlat ishtirokidagi korxonalarining faoliyati to'g'risidagi qonunchilik hujjatlarida belgilangan ma'lumot "Davlat mulki" axborot tizimiga o'z vaqtida taqdim etilmaganda, ijroiya organ rahbarlari rag'batlantirilishiga yo'l qo'yilmaslik masalalarni maqullash va aksiyadorlar umumiy yig'ilishga kiritish
- dividend miqdori, uni to'lash shakli va tartibi yuzasidan tavsiyalar berish;
- Jamiyatning zaxira fondidan va boshqa jamg'armalaridan foydalanish;
- Jamiyatning filiallarini, sho'ba va tobe ho'jalik jamiyatlarini tashkil etish va tugatish;
- qimmatli qog'ozlar chiqarilishi to'g'risidagi qaror va emissiya risolasini tasdiqlash;
- aksiyalarni joylashtirish narhini belgilash;
- ruyxatdan o'tkazilgan qimmatli qog'ozlar chiqarilishlariga o'zgartirish va (yoki) qo'shimchalar kiritish matnini tasdiqlash;
- qonunchilikda belgilangan hollarda Jamiyat tomonidan yirik bitimlar va Jamiyat affillangan shaxslari bilan bitimlar tuzish to'g'risida qaror qabul qilish;
- Jamiyatning boshqaruv a'zolarini (bosh direktordan tashqari) saylash (tayinlash), ularning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish. Bunda Ijroiya organi (bosh direktori) va kollegial ijroiya organi (boshqaruv) a'zolarini ish bilan ta'minlash uchun 3 (Uch) yil muddatga mehnat shartnomasini tuzish. Bunda, shartnomaning amal qilish muddatini uzaytirish yoki uni bekor qilish mumkinligi to'g'risida xar yili qaror qabul qilish;
- Jamiyat tomonidan korporativ obligatsiyalar, shu jumladan aksiyalarga ayirboshlanadigan obligatsiyalar chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish;
- qimmatli qog'ozlarning xosilarini chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish;
- Jamiyatning korporativ obligatsiyalarini qaytarib sotib olish to'g'risida qaror qilish;

- Jamiyat bosh direktori tomonidan o'z vazifalarini uzoq vaqt yoki noaniq davr mobaynida bajarish imkoniyati bo'lmagan, shuningdek xar qanday asoslarga ko'ra bosh direktorning vakolatlari muddatidan ilgari tugatilgan hollarda, Jamiyat bosh direktori vazifasini bajaruvchini tayinlash;

- Jamiyatning tijorat va notijorat tashkilotlardagi ishtiroki bilan bog'liq bitimlarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tuzish.

- homiylik (xayriya) yoki beg'araz yordam ko'rsatish (olish) tartibi va shartlarini belgilash hamda bu borada aksiyadorlar umumiy yig'ilishiga tegishli tavsiyalar berish;

- Kuzatuv kengashi a'zolaridan iborat bo'lgan Strategiya va investitsiyalar, Audit va xavflarni boshqarish, Tayinlovlar va rag'batlantirish, Korrupsiyaga qarshi kurash va etika qo'mitalarini, shuningdek zaruratga ko'ra boshqa qo'mitalarni tashkil qilish;

- Jamiyatning rahbar lavozimlariga o'tkaziladigan tanlov reglamentini tasdiqlash, ijro organi rahbari va uning o'rinbosarlari lavozimlariga tanlov e'lon qilish va o'tkazish;

- Jamiyatning yillik xaridlar rejasini yilning 1 dekabrigacha ko'rib chiqib, maqullash va amalga oshirilgan xaridlar to'g'risidagi hisobotni ko'rib chiqish;

- Bosh direktorning transformatsiya bo'yicha birinchi o'rinbosari va unga hisobdor loyiha ofisining xarajatlar smetasini tasdiqlash;

- Jamiyat ijroiya organi rahbariga xususiylashtirish jarayonlarini, shu jumladan aksiyalarni ommaviy joylashtirishni (IPO) sifatli va belgilangan muddatlarda amalga oshirilganligi uchun alohida mukofot (ijroiya organ a'zolariga oylik ish xaqi va yil yakunlari bo'yicha bir yo'la to'lanadigan mukofot to'lovlardan tashqari) yoki amalga oshirmaganlik uchun javobgarlik choralarini belgilash;

- Jamiyat tomonidan asosiy faoliyatga xos bo'lgan yangi ko'chmas mulk ob'ektlarini sotib olish yoki qurish hamda xo'jalik Jamiyatlari ustav kapitalidagi ulushini sotib olish, shuningdek, asosiy faoliyatidan tashqari qo'shimcha faoliyat bilan shug'ullanish to'g'risida qaror qabul qilish

- Jamiyat tomonidan mol-mulkni olish yoki uni boshqa shaxsga berish yoxud mol-mulkni boshqa shaxsga berish ehtimoli bilan bog'liq bitim (shu jumladan qarz, kredit, garov, kafillik) yoki o'zaro bog'langan bir nechta bitim, agar boshqa shaxsga berilayotgan mol-mulkning yoki olinayotgan mol-mulkning balans qiymati bunday bitimlarni tuzish to'g'risidagi qaror qabul qilinayotgan sanada Jamiyat sof aktivlari miqdorining 15% (O'n besh foizidan) ortig'ini tashkil etsa, - Kuzatuv kengashida, Jamiyat sof aktivlari miqdorining 50% (Ellik foizini) tashkil etsa, - aksiyadorlar umumiy yig'ilishi xal qilishi uchun olib chiqish;

- Axborot siyosati to'g'risidagi nizomni tasdiqlash;

- Jamiyatda korporativ boshqaruv tizimini baholashni tashkillashtirish, baholash huquqiga ega mustaqil tashkilotni tanlov asosida tanlash;

- Jamiyatni yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonini jadallashtirish;

- Jamiyatda transformatsiya jarayonlarini samarali tashkil etish, korxonaning tashqi qarzlarni optimallashtirish, zamonaviy xarid tizimini joriy etish, investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga muqobil mablag'larni jalb etish;

- Jamiyat yillik hisobotini, buxgalteriya hisob-kitobini, jumladan foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotlarni aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan sanadan 10 (O'n) kundan kechiktirmay dastlabki tarzda tasdiqlash,

- Kuzatuv kengashiga, Ijroiya organiga va sanoq komissiyasiga saylash uchun nomzodlarning ro'yxatini tasdiqlash;

- Jamiyat ijro organining faoliyatiga daxldor har qanday hujjatlardan erkin foydalanish va Jamiyat Kuzatuv kengashi zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun bu hujjatlarni ijro organidan olish. Jamiyat Kuzatuv kengashi va uning a'zolari olingan hujjatlardan faqat xizmat maqsadlarida foydalanishi mumkin;

Jamiyat avvalgi yilning 1-dekabrigacha ishlab chiqilgan yilning eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlarini (SMK) tasdiqlash. Bunda, mazkur SMKlar bajarilishidan kelib chiqib, moliyaviy yil natijalariga ko'ra Jamiyat boshqaruv a'zolari oylik ish xaqining eng yuqori miqdorining 2 (Ikki) baravariga teng miqdorda mukofotlanishini ko'rib chiqish;

- o'z vakolati doirasiga kiradigan masalalar yuzasidan, shu jumladan Jamiyatni boshqarishga doir qonun hujjatlarida belgilangan talablarga rioya etilishi yuzasida ichki audit xizmatining xulosasini eshitish;

- Jamiyat tashkiliy tuzilmasi va unga o'zgartirish kiritishni maqullash va aksiyadorlar umumiy yig'ilishiga kiritish;

- Jamiyatning asosiy (ustavdagi) faoliyati bilan bog'liq va bog'liq bo'lmagan shu'ba xo'jalik jamiyatlari hamda filiallari faoliyati to'g'risidagi hisobotlarni har chorakda ko'rib chiqish;

- qonunchilikda belgilangan boshqa masalalar.

10.7. Aksiyalari fond birjasining birja kotirovkasi varag'iga kiritilgan Jamiyat faqat mazkur Jamiyat Kuzatuv kengashining a'zolaridan tarkib topgan audit qo'mitasini tashkil etishi shart. Jamiyatning ichki audit xizmati, agar bunday xizmat mavjud bo'lsa, o'z faoliyatida audit ko'mitasiga hisobdordir.

10.8. Aksiyalari fond birjasining birja kotirovkasi varag'iga kiritilgan Jamiyat Kuzatuv kengashi tarkibiga kamida bir nafar mustaqil a'zo kiritilish kerak, ushbu a'zo har yili qayta saylanishi mumkin. Bunda davlat va (yoki) xo'jalik birlashmasining ulushi ustun bo'lgan jamiyatlarda nomzod ko'rsatish hamda Kuzatuv kengashining mustaqil a'zosi bo'yicha ovoz berish davlat va (yoki) xo'jalik birlashmasining vakillari tomonidan amalga oshiriladi.

10.9. 1% (Bir foiz)dan kam bo'lmagan ovoz berish huquqini beradigan Jamiyat aksiyasiga ega bo'lgan aksiyadorlar (aksiyador) Jamiyat Kuzatuv kengashi yig'ilishi chaqirig'ini talab qilish huquqiga ega

10.10. Jamiyat Kuzatuv kengashining vakolat doirasiga kiritilgan masalalar hal qilish uchun Jamiyatning ijroiya organiga o'tkazilishi mumkin emas.

10.11. Jamiyat Kuzatuv kengashining majlisi Kuzatuv kengashining raisi tashabbusiga ko'ra, Jamiyat Kuzatuv kengashi, ijroiya organi a'zosining, ichki audit xizmati boshlig'i talabiga ko'ra chaqirilishi mumkin.

10.12. Jamiyatning Kuzatuv kengashi a'zolari saylovi kumulyativ ovoz berish orqali amalga oshiriladi. Kumulyativ ovoz berishda har bir aksiyadorga tegishli ovozlar soni Jamiyatning Kuzatuv kengashiga saylanishi lozim bo'lgan shaxslar soniga ko'paytiriladi va aksiyador shu tariqa olingan ovozlarni bitta nomzodga to'lik yoki ularni ikki va undan ortik nomzodlar o'rtasida taqsimlashga haqlidir. Eng ko'p ovoz to'plagan nomzodlar Jamiyat Kuzatuv kengashi tarkibiga saylangan deb hisoblanadi.

10.13. Jamiyat Kuzatuv kengashining raisi Kuzatuv kengash a'zolari tomonidan ularning o'zlari orasidan Jamiyat Kuzatuv kengashi a'zolari umumiy soniga nisbatan ko'pchilik ovoz bilan saylanadi. Jamiyat Kuzatuv kengashi o'z raisini jami a'zolarining ko'pchilik ovozi bilan qayta saylashga haqlidir.

10.14. Jamiyat Kuzatuv kengashining raisi uning ishini tashkil etadi. Kuzatuv kengashi majlislarini chaqiradi va ularda raislik qiladi, majlisda bayonnoma yuritilishini tashkil etadi.

10.15. Jamiyat Kuzatuv kengashi raisi yo'q bo'lgan hollarda uning vazifasini Kuzatuv kengash a'zolaridan biri amalga oshiradi.

10.16. Jamiyat Kuzatuv kengashi majlislari uning raisi tomonidan har chorakda kamida 1 (Bir) marta chaqiriladi. Zaruriyatga ko'ra Jamiyat Kuzatuv kengashining navbatdan tashqari majlislari ham o'tkazilishi mumkin.

10.17. Jamiyat Kuzatuv kengashining majlisini o'tkazish uchun kvorum jamiyat Kuzatuv kengashiga saylangan a'zolarining 75% (Yetmish besh foiz)idan kam bo'lmasligi kerak. Jamiyat Kuzatuv kengashining majlisida qarorlar, agar qonunchilikda boshqa hollar ko'zda tutilmagan bo'lsa, majlisda hozir bo'lganlarning ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Jamiyat Kuzatuv kengashi majlisida masalalar hal etilayotganda Kuzatuv kengashning har bir a'zosi bitta ovozga ega.

10.18. Bunda, Jamiyat Kuzatuv kengashining bir a'zosi o'z ovozini Kuzatuv kengashning boshqa azosiga berishiga hakli emas va Jamiyat Kuzatuv kengashi a'zolarining ovozlari teng bo'lgan holda, Jamiyat Kuzatuv kengashi raisining ovozi hal etuvchi hisoblanadi.

10.19. Jamiyat Kuzatuv kengashining majlisida bayonnoma yuritiladi. Kuzatuv kengashi majlisining bayonnomasi majlis o'tkazilganidan so'ng 10 (O'n) kundan kechiktirmay tuziladi. Majlis bayonnomasida quyidagilar ko'rsatiladi:

- majlis o'tkazilgan sana, vaqt va joy;
- majlisda ishtirok etadigan, shu jumladan axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda masofadan turib ishtirok etadigan shaxslar;
- majlisning kun tartibi;
- ovoz berishga qo'yilgan masalalar, ular yuzasidan o'tkazilgan ovoz berish yakunlari;
- qabul qilingan qarorlar.

10.20. Jamiyat Kuzatuv kengashi majlisining bayonnomasi majlisda ishtirok etayotgan Jamiyat Kuzatuv kengashi a'zolari tomonidan imzolandi, ular majlis bayonnomasi to'g'ri rasmiylashtirilishi uchun javobgar bo'ladi.

10.21. Jamiyat Kuzatuv kengashining qarorlari sirdan ovoz berish yo'li bilan (so'rov yo'li bilan) Jamiyat Kuzatuv kengashining barcha a'zolari tomonidan bir ovozdan qabul qilinishi mumkin. Bunda, Jamiyat Kuzatuv kengashining bir a'zosi o'z ovozini Kuzatuv kengashning boshqa azosiga berishiga hakli emas va Jamiyat Kuzatuv kengashi a'zolarining ovozlari teng bo'lgan holda Jamiyat Kuzatuv kengashi raisining ovozi hal etuvchi hisoblanadi.

10.22. Jamiyat Kuzatuv kengashi majlisining bayonnomasi imzolangan kuni Jamiyatning ijroiya organiga ijro etish uchun topshiriladi. Kuzatuv kengashi aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini chaqirish to'g'risida qaror qabul qilgan taqdirda mazkur qaror haqidagi axborot Jamiyatning ijroiya organiga Kuzatuv kengashining majlisi o'tkaziladigan kuni topshiriladi.

10.23. Jamiyat Kuzatuv kengashi "O'zbekko'mir" aksiyadorlik jamiyat kuzatuv kengashi to'g'risida"gi nizomi asosida ish olib boradi.

XI. JAMIYATNING IJROIYA ORGANI

11.1. Jamiyatning kundalik faoliyatiga rahbarlik kollegial Ijroiya-organ va Bosh direktor tomonidan amalga oshiriladi. Boshqaruv raisi - Bosh direktor deb ataladi.

11.2. Jamiyat Kuzatuv kengash a'zolari Ijroiya organ a'zolari bo'la olmaydi.

11.3. Jamiyat Ijroiya organ a'zolari 6 (Olti) kishidan iborat. Bular: Bosh direktor, bosh muhandis va bosh direktorning 4 (To'rtta) o'rinbosarlaridan iborat. Jamiyat Bosh direktori aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qarori bilan, Ijroiya organ a'zolari esa Jamiyat Kuzatuv kengashi qarori bilan, 3 (Uch) yil muddatga saylanadilar. Jamiyat Bosh direktori bilan mehnat shartnomasini Jamiyat nomidan Kuzatuv kengashi raisi imzolaydi, qolgan Ijroiya organ a'zolari bilan mehnat shartnomalari Bosh direktor tomonidan imzolanadi.

11.4. Bosh direktor sifatida tayinlangan (qayta tayinlangan) shaxs surunkasiga 2 (Ikki) muddatdan ortiq Ijroiya organ rahbari bo'lishi mumkin emas.

11.5. Boshqaruvni Bosh direktor, u bo'lmagan taqdirda, uning birinchi o'rinbosari yoki o'rinbosarlaridan biri boshqaradi.

11.6. Ijroiya organi Jamiyatning kundalik faoliyatini boshqaradi va tezkor rahbarlikni O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, Jamiyat ustavi, aksiyadorlar umumiy yig'ilishi va Kuzatuv kengashining qarorlari, "Ijroiya organ to'g'risidagi nizom"ga muvofiq amalga oshiradi.

11.7. Boshqaruv ishiga rahbarlikni Bosh direktor amalga oshiradi va o'z vakolatlari doirasida Jamiyat nomidan ishonchnomasiz ish ko'rishga haqli.

11.8. Bosh direktor o'rinbosarlari o'z vakolatlari doirasida ishonchnoma asosida Jamiyat nomidan ish ko'rishga haqlidirlar.

11.9. Bosh direktor aksiyadorlar umumiy yig'ilishi va Kuzatuv kengashiga hisobot beradi.

11.10. Bosh direktorga to'lanadigan haq miqdori Jamiyat faoliyatining samaradorligiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'lib, mehnat shartnomasida belgilanadi.

11.11. **Ijroiya organining vakolatlariga quyidagilar kiradi:**

- Jamiyat aksiyadorlari umumiy yig'ilishining va Kuzatuv kengashining vakolatiga kiruvchi masalalardan tashqari, Jamiyat faoliyatining barcha masalalarini xal qilish;

- Jamiyat tomonidan mol-mulkni olish yoki uni boshqa shaxsga berish yoxud mol-mulkni boshqa shaxsga berish extimoli bilan bog'liq bitim yoki o'zaro bog'langan bir nechta bitimlar bo'yicha qaror qabul qilish, agar boshqa shaxsga berilayotgan yoki olinayotgan mol-mulkning balans qiymati bunday bitimlarni tuzish to'g'risidagi qaror qabul qilinayotganda Jamiyat sof aktivlari miqdorining 15% (O'n besh foiz)igachasini tashkil etsa, ushbu masalani xal qilish (aksiyalarni va boshqa qimmatli qog'ozlarni joylashtirish bilan bog'liq bitimlar bundan mustasno);

- Jamiyat faoliyatining ustivor yo'nalishlari va ularni amalga oshirish bo'yicha istiqbolli rejalarni, shuningdek Jamiyat faoliyatining asosiy yo'nalishlari va maqsadlaridan kelib chiqqan holda, Jamiyatning o'rta va uzoq muddatga rivojlantirishning aniq muddatlari belgilangan strategiyasini ishlab chiqish va Kuzatuv kengashiga ko'rib chiqish uchun taqdim etish;

- Jamiyat filiallari, sho'ba va tobe ho'jalik Jamiyatlarining faoliyatini samarali tashkillashtirish, xodimlarini me'yoriy sonini tasdiqlash va qonunchilik asosida nazorat etish;

- Jamiyatning daromadini va raqobatbardoshligini oshirish maqsadida kundalik xo'jalik siyosatini ishlab chiqish hamda ishlab chiqarish faoliyatini samarali tashkil etish va rahbarlik qilish;

- Jamiyatning biznes-rejasi asosida ishlab chiqilgan ishlab chiqarish dasturini shakllantirish va tasdiqlash, Jamiyat tarkibiy bo'limlarining ishlab chiqarish xajmini aniqlash;

- Jamiyatning ijtimoiy rivojlanish dasturini amalga oshirish bo'yicha tavsiyalarni ko'rib chiqish va ishlab chiqish;

- Ishchilarning mehnat muhofazasini va ekologiya talablariga rioya qilish;

- Kuzatuv kengashi va aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi muhokamasiga kiritiladigan masalalar bo'yicha axborot, materiallar va takliflarni tayyorlash;

- Jamiyatning ishlab chiqarish faoliyatini samarali tashkil etish va rahbarlik qilish;

- amaldagi qonunchilikka muvofiq Jamiyatda buxgalteriya hisobi va hisobotning tashkil etilishi, zarur holati va ishonchliligini, yillik hisobotlar va boshqa moliyaviy hisobotlar tegishli organlarga o'z vaqtida taqdim etilishini, shuningdek aksiyadorlarga, kreditorlarga va boshqa oluvchilarga yuboriladigan Jamiyat faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlar taqdim etilishini ta'minlash;

- Jamiyatning yillik biznes-reja ko'rsatkichlarining bajarilishini ta'minlash va har chorakda kengaytirilgan ijroiya organ majlisida ko'rib chiqish;

- o'z vakolatlari doirasida Jamiyatning mol-mulki va pul mablag'larini tassaruf etish;

- Jamiyatning filiallari, tarkibiy bo'linmalari to'g'risidagi nizomlar, xodimlarning lavozim yo'riqnomalarini tasdiqlash;

- Jamiyatning vakolatli Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan biznes-rejada ko'rsatilgan miqdorlarda foyda olishni ta'minlash;

- Jamiyatning moliya-xo'jalik faoliyati to'g'risidagi xujjatlar Jamiyatning Kuzatuv kengashi va jamiyat auditori talabiga ko'ra taqdim etish;

- Jamiyatning tijorat sirini tashkil etuvchi axborotlarni saqlash;

- dividendlar hisoblanishi va to'lanishi bo'yicha aksiyadorlarning barcha huquqlariga rioya qilish;

- Jamiyatning Boshqaruvi O'zbekiston Respublikasi qonun xujjatlari, mazkur ustav va Jamiyatning me'yoriy xujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlar (huquqlar) va majburiyatlarga ham ega bo'lishi mumkin.

11.12. Boshqaruv faoliyatiga rahbarlikni Jamiyatning Bosh direktori amalga oshiradi.

Bosh direktorning vakolatlari:

- Bosh director mazkur ustav va Kuzatuv kengashi tomonidan o'ziga berilgan vakolatlarga muvofiq Jamiyatning ishiga rahbarlik qilish;

- Kuzatuv kengashining roziligiga ko'ra uning ishida maslaxat ovozi bilan ishtirok etish;

- Jamiyat aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi va Kuzatuv kengashi tomonidan qabul qilingan qarorlar ijrosini tashkil etish;

- Boshqaruv faoliyatini tashkil qiladi, Ijroiya organ a'zolari o'rtasidagi vazifalarni taqsimlaydi, Ijroiya organ tomonidan asoslangan va samarali qarorlar qabul qilinishini ta'minlaydi, Ijroiya organ majlislarida raislik qiladi, ushbu ustav va "Ijroiya organi to'g'risida"gi nizomda nazarda tutilgan boshqa masalalarni hal qiladi.

- Ishchi va xodimlarga ish haqi va mukofotlar miqdorini belgilash;
- Jamiyat nomidan ishonchnomasiz ish yuritish va uning manfaatlarini himoya qilish;
- Jamiyat tomonidan bitimlar tuzish to'g'risida qaror qabul qilish;
- Qonunchilikda belgilangan tartibda Jamiyat nomidan bitimlar tuzish;
- Jamiyatning filiali yoki vakolatxonasi rahbarini tayinlash va lavozimidan ozod etish;
- Jamiyat xodimlari bo'yicha shtatlarni tasdiqlash;
- Jamiyat xodimlarini ishga qabul qilish, ular bilan mehnat shartnomalarini tuzish va bekor qilish, ularga nisbatan intizomiy jazo choralarini qo'llash, xodimlar tomonidan mehnat va ijro intizomini saqlab turishini ta'minlash;
- Jamiyat nomidan amaldagi qonunchilikka asosan ishonchnomalarni berish;
- Jamiyatning barcha xodimlari tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan buyruq va farmoyishlar chiqarish va ko'rsatmalar berish;
- Jamiyat filiallari xodimlarini ishlab chiqarish zaruriyatidan hamda bekor turib qolinishini oldini olish maqsadida xodimlarni bir filialdan boshqa bir filialga amaliy yordam uchun yuborish;
- o'z vakolatlari doirasida Jamiyatning samarali va barqaror ishlashini ta'minlagan holda uning joriy faoliyatiga rahbarlik qilish;
- aksiyadorlar umumiy yig'ilishi va Kuzatuv kengashi qarorlarining bajarilishini nazorat qilish;
- banklarda hisobvaraqlar (milliy va xorijiy valyuta hisobvaraklar) ochish;
- Jamiyatning bank va boshqa moliya xujjatlarida birinchi imzo vakolatiga ega bo'lish;
- ustav fondida davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan jamiyatlar ko'chmas mulklari, avtomototransport vositalari hamda boshqa asosiy vositalarini "E-auksion" elektron savdo platformasidagi ijaraga berilishini ta'minlash;
- Bosh direktor vakolatiga Jamiyatning joriy faoliyati rahbarligining barcha masalalari kiradi, aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi yoki Kuzatuv kengashning vakolatiga kirgan masalalar bundan mustasno.
- Bosh direktor Jamiyat ustavida, aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qarorlarida, Kuzatuv kengashi qarorlarida, u bilan tuzilgan mehnat shartnomasida va qonunchilik bilan belgilangan vakolatlari doirasida ish tutadi.
- Jamiyat Bosh direktori O'zbekiston Respublikasi qonun xujjatlari, mazkur ustav va Jamiyatning ichki me'yoriy xujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlar (huquqlar) va majburiyatlarga ham ega bo'lishi mumkin.

11.13. Ijroiya organ kamida 1 (Bir) oyda 1 (Bir) marta yig'iladi. Ijroiya organ majlisida Ijroiya organ a'zolarining kamida 60% (Oltmish foizi) qatnashganda Ijroiya organ majlisi vakolatli hisoblanadi. Ijroiya organ majlisida bayonnoma yuritiladi va u Bosh direktor tomonidan, u uzurli sabablarga ko'ra ishtirok etmagan taqdirda majliga raislik qilgan shaxs tomonidan imzolanadi.

11.14. Ijroiya organ rahbari va uning o'rinbosarlari faoliyatining samaradorligi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) asosida baholanadi.

- Bunda, Ijroiya organ rahbari va uning o'rinbosarlari faoliyatining keyingi hisobot yili uchun eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlari alohida choraklar kesimida

avvalgi yilning 1-dekabrigacha ishlab chiqib Kuzatuv kengashiga ko'rib chiqish uchun kiritiladi.

- Ijroiya organi rahbari va uning o'rinbosarlarini rag'batlantirish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 31-iyuldagi 464-sonli qarorida belgilangan tartibda ularning (KPI) bajarilishi natijalaridan kelib chiqib oylik ish haqining eng yuqori miqdorining ikki baravariga teng miqdorda qo'shimcha mukofotlanishi mumkin.

- Jamiyat Ijroiya organi rahbariga xususiylashtirish jarayonlarini, shu jumladan aksiyalarni ommaviy joylashtirishni (IPO) sifatli va belgilangan muddatlarda amalga oshirilganligi uchun alohida mukofot (Ijroiya organ a'zolariga oylik ish xaqi va yil yakunlari bo'yicha bir yo'la to'lanadigan mukofot to'lovlardan tashqari) yoki amalga oshirmaganlik uchun javobgarlik choralari belgilanishi mumkin.

11.15. Bosh direktor va uning o'rinbosarlarini lavozimdan ozod qilish Jamiyat Kuzatuv kengashi yoki aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qarorlari bilan amalga oshiriladi.

11.16. Bosh direktor uzoq muddatda bo'lmagan hollarda uning vazifalarini uning o'rinbosarlari yoki Kuzatuv kengashi tomonidan belgilangan shaxs tomonidan amalga oshiradi.

11.17. Ijroiya organning huquq va majburiyatlari Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlangan "O'zbekko'mir" aksiyadorlik jamiyati ijroiya organi to'g'risida"gi nizomda belgilab qo'yiladi.

11.18. Ijroiya organi o'z huquqlarini amalga oshirishda va o'z majburiyatlarini bajarishda Jamiyat manfaatlarini ko'zlab ish tutishi lozim.

11.19. Ijroiya organi qonun hujjatlariga va ushbu ustavga muvofiq Jamiyat oldida javobgardir.

11.20. Aksiyadorlar vakili bo'lib ishtirok etayotgan Ijroiya organi a'zolari Ijroiya organ a'zolarini saylash bo'yicha ovoz berish huquqiga ega emas.

11.21. Ijroiya organiga mukofot pullari Jamiyatni rivojlantirish Biznes rejasida ko'rsatilgan ko'rsatkichlar asosida, Kuzatuv kengashi tomonidan ko'rib chiqilgandan so'ng to'lanadi.

11.22. Jamiyatning sho'ba korxonalari, filiallarini moliyaviy-xo'jalik faoliyatiga filialning direktori va bosh hisobchisi mas'uldirlar;

11.23. Bosh direktor va uning o'rinbosarlarining xarakati (xarakatsizligi) natijasida korxonalar manfaatlariga yetkazilgan har qanday zarar, ziyon ularning oqibatida yuzaga keluvchi jarimalar, penya va boshqa majburiy to'lovlardan uchun ushbu shaxslarning subsidiar javobgarligi ular bilan tuziladigan mehnat shartnomasida ko'zda tutilishi lozim.

XII. JAMIYATNING MOLIYA-XO'JALIK FAOLIYATINI NAZORAT QILISH

Jamiyat Ichki audit xizmati

12.1. Jamiyatda ichki audit xizmati tashkil etiladi. Ichki audit xizmati Kuzatuv kengashi va Kuzatuv kengashi qoshidagi audit va xavflarni boshqarish qo'mitasiga hisobdordir.

12.2. Jamiyatning ichki audit xizmati Jamiyat Bosh direktori, filiallari tomonidan qonun hujjatlariga, Jamiyat ustaviga va boshqa hujjatlarga rioya etilishini, buxgalteriya

hisobida va moliyaviy hisobotlarda ma'lumotlarning to'liq hamda ishonchli tarzda aks ettirilishi ta'minlanishini, xo'jalik operatsiyalarini amalga oshirishning belgilangan qoidalari va tartib-taomillariga rioya etilishini, aktivlarning saqlanishini, shuningdek Jamiyatni boshqarish yuzasidan qonun hujjatlarida belgilangan talablarga rioya etilishini tekshirish hamda monitoring olib borish orqali Jamiyatning ijroiya organi, filiallari va vakolatxonolari ishini nazorat qiladi hamda baholaydi.

12.3. Jamiyatning ichki audit xizmati o'z faoliyatini qonun hujjatlarida, ushbu ustav va fksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlanadigan "Jamiyat ichki audit xizmati to'g'risida"gi nizomda belgilanadigan tartibga muvofiq amalga oshiradi.

Auditorlik tashkiloti (tashqi auditor)

12.4. Auditorlik tashkiloti Jamiyat bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Jamiyatning moliya-xo'jalik faoliyatining tekshirilishini amalga oshiradi va unga auditorlik xulosasi taqdim etadi.

12.5. Auditorlik tashkiloti Jamiyatning moliyaviy hisoboti va moliyaga doir boshqa axborot haqida noto'g'ri xulosani o'z ichiga olgan auditorlik xulosasi tuzilganligi oqibatida yetkazilgan zarar uchun Jamiyat oldida javobgar bo'ladi.

XIII. JAMIYAT AKSIYADORLARINING, SHU JUMLADAN MINORITAR AKSIYADORLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

13.1. Jamiyat aksiyadorlari:

- Jamiyat aksiyadorlarining reestriga kiritilish;
- depozitariydagi depo hisobvarag'idan o'ziga talluqli ko'chirma olish;
- Jamiyat foydasining bir qismini dividendlar tarzida olish;
- Jamiyat tugatilgan taqdirda o'zlariga tegishli ulushga muvofiq mol-mulkning bir qismini olish;
- Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishlarida ovoz berish orqali Jamiyatni boshqarishda ishtirok etish;
- Jamiyatning moliya-xo'jalik faoliyati natijalari to'g'risida to'liq va ishonchli axborotni belgilangan tartibda olish;
- olgan dividendini erkin tasarruf etish;
- qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organida, shuningdek sudda o'z huquqlarini himoya qilish;
- o'ziga yetkazilgan zararining o'rni qoplanishini belgilangan tartibda talab qilish;
- o'z manfaatlarini ifodalash va himoya qilish maqsadida uyushmalarga va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlariga birlashish;
- qimmatli qog'ozlarni olishda zarar ko'rish, shu jumladan boy berilgan foyda ehtimoli bilan bog'liq tavakkalchiliklarni sug'urta qilish huquqiga ega.
- aksiyadorlar qonun hujjatlari va ushbu ustavga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

13.2. Aksiyadorlar, shu jumladan minoritar aksiyadorlar ovoz berishda ularning o'zaro pozitsiyalarini shakllantirish uchun aksioner kelishuvlar tuzish huquqiga ega.

13.3. Aksiyadorlar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va ko'zda tutilgan hollarda o'zlariga tegishli aksiyalarning hammasi yoki bir qismi Jamiyat tomonidan qaytarib sotib olinishini talab qilishga haqli.

13.4. Jamiyatning 1% (Bir foiz)dan kam bo'lmagan oddiy aksiyalari egalariga Kuzatuv kengashi majlisini chaqirishni talab qilish va kun tartibi, foydani taqsimlash, boshqaruv va nazorat organi a'zoligiga ularning nomzodini (umumiy yig'ilish o'tkazilgunga qadar almashtirish imkoniyati bilan) ko'rsatish yuzasidan taklif kiritish huquqiga ega.

13.5. Har bir oddiy aksiya unga egalik qiluvchi har bir aksiyadorga shu turdagi aksiyalarning boshqa egalari bilan bir xil bo'lgan hajmdagi huquqlarni beradi.

13.6. Oddiy aksiyalarning egalari bo'lgan aksiyadorlar ushbu Qonunga va Jamiyat ustaviga muvofiq aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida mazkur yig'ilish vakolatiga kiradigan barcha masalalar bo'yicha ovoz berish huquqi bilan ishtirok etishi mumkin, shuningdek dividendlar olish, Jamiyat tugatilgan taqdirda esa, o'zlariga tegishli ulushga muvofiq Jamiyat mol-mulkining bir qismini olish huquqiga ega.

13.7. Imtiyozli aksiyalarning egalari bo'lgan aksiyadorlar, agar Qonunda va mazkur ustavda boshqacha qoida belgilanmagan bo'lsa, aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ovoz berish huquqiga ega emas.

13.8. Jamiyatning imtiyozli aksiyalari ularning egalari bo'lgan aksiyadorlarga bir xil hajmda huquqlar beradi va oddiy aksiyalar bilan bir xil nominal qiymatga ega bo'ladi.

13.9. Imtiyozli aksiyalar bo'yicha to'lanmagan yoki to'liq to'lanmagan dividend 3 (Uch) yil jamg'arib boriladi va keyinchalik to'lanadi.

13.10. Imtiyozli aksiyalarning egalari bo'lgan aksiyadorlar aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida jamiyatni qayta tashkil etish va tugatish to'g'risidagi masalalar hal etilayotganda ovoz berish huquqi bilan ishtirok etadi. Imtiyozli aksiyalarning egalari bo'lgan aksiyadorlar aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida Jamiyat ustaviga imtiyozli aksiyalarning egalari bo'lgan aksiyadorlarning huquqlarini cheklaydigan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi masalalar, shu jumladan avvalgi navbatdagi imtiyozli aksiyalar bo'yicha to'lanadigan dividendning miqdorini belgilash yoki ko'paytirish va (yoki) tugatilish qiymatini belgilash yoki ko'paytirish masalalari, shuningdek imtiyozli aksiyalarning egalari bo'lgan aksiyadorlarga dividend va (yoki) bu aksiyalarning tugatilish qiymatini to'lash navbati bo'yicha imtiyozlar berish hollari hal etilayotganda ovoz berish huquqini oladi.

13.11. Imtiyozli aksiyalarning egalari bo'lgan aksiyadorlar aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi vakolat doirasiga kiradigan masalalar bo'yicha ovoz berish huquqi bilan aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etish huquqiga imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lash to'g'risida qaror qabul qilinmagan yoki dividendlarni to'liq to'lamaslik to'g'risida qaror qabul qilingan aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishidan keyingi yig'ilishdan boshlab ega bo'ladi. Imtiyozli aksiyalarning egalari bo'lgan aksiyadorlarning aksiyadorlar umumiy yig'ilishida ishtirok etish huquqi mazkur aksiyalar bo'yicha dividendlar birinchi marta to'liq miqdorda to'langan paytdan e'tiboran bekor qilinadi.

13.12. Aksiyadorning aksiyadorlar umumiy yig'ilishida ishtirok etishi, dividendlar olishi va Jamiyat tomonidan korporativ harakatlar bajarilganda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa huquqlarni amalga oshirishi Jamiyat aksiyadorlarining reestri asosida amalga oshiriladi.

13.13. Aksiyador tomonidan huquqlarning amalga oshirilishi boshqa aksiyadorlarning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini buzmasligi lozim.

13.14. Aksiyalarni boshqa shaxsga berishga doir cheklov belgilanishi aksiyadorni - mazkur aksiyalar egasini qonunchilikda belgilangan tartibda Jamiyatni boshqarishda ishtirok etish va ular bo'yicha dividendlar olish huquqidan mahrum qilmaydi.

13.15. Jamiyat aksiyadorlari quyidagi majburiyatlarga ega:

- Jamiyat faoliyati to'g'risidagi maxfiy ma'lumotlarni oshkor qilmaslik.

- Aksiyadorlar qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa majburiyatlarga ham ega bo'lishi mumkin.

13.16. Aksiyalarga bo'lgan huquqlar aksiyalarni oluvchiga uning depo hisobvarag'iga tegishli kirim yozuvi belgilangan tartibda kiritilgan paytdan e'tiboran o'tadi va qonun hujjatlarida belgilangan tartibda depozitariy tomonidan beriladigan depo hisobvarag'idan ko'chirma bilan tasdiqlanadi.

Aksiya bilan tasdiqlanadigan huquqlar ularni oluvchiga ushbu qimmatli qog'ozga bo'lgan huquqlar o'tgan paytdan e'tiboran o'tadi.

Depo hisobvarag'idan ko'chirma aksiyadorning aksiyalarga bo'lgan huquqlarini tasdiqlaydigan, depozitariy tomonidan beriladigan hujjatdir.

13.17. Minoritar aksiyadorlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida Jamiyatda ularning orasidan minoritar aksiyadorlarning qo'mitasi tashkil etilishi mumkin.

13.18. Minoritar aksiyadorlar qo'mitasining tarkibiga nomzodlar bo'yicha takliflar Jamiyatga Jamiyat Kuzatuv kengashiga nomzodlar bo'yicha takliflar kiritish uchun nazarda tutilgan tartibda va muddatlarda kiritiladi, bundan Kuzatuv kengashining mustaqil a'ziligiga nomzodlar ko'rsatish tartibi mustasno.

13.19. Minoritar aksiyadorlar qo'mitasiga aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan minoritar aksiyadorlar orasidan 5 (Besh) kishi 1 (Bir) yil muddatga saylanadi.

13.20. Minoritar aksiyadorlar qo'mitasining a'zolarini saylashda aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida hozir bo'lgan va Jamiyat Kuzatuv kengashiga nomzodlar ko'rsatmagan yoxud aksiyadorlarning o'tkazilayotgan umumiy yig'ilishida Kuzatuv kengashiga nomzodlari saylanmagan aksiyadorlar ishtirok etadi.

13.21. Minoritar aksiyadorlar qo'mitasining tarkibiga Jamiyatning bosh direktori boshqaruv a'zolari, shuningdek Jamiyatning Kuzatuv kengashiga saylangan shaxslar kirishi mumkin emas.

13.22. Minoritar aksiyadorlar qo'mitasining vakolatiga quyidagilar kiradi:

aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi yoki Jamiyatning Kuzatuv kengashi ko'rib chiqishi uchun kiritilayotgan yirik bitimlar va affillangan shaxslar bilan bitimlar tuzishga oid masalalar bo'yicha takliflar tayyorlashda ishtirok etish;

minoritar aksiyadorlarning o'z huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bilan bog'liq murojaatlarini ko'rib chiqish;

qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organiga minoritar aksiyadorlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish to'g'risida murojaatlar kiritish;

qonunchilikka va Jamiyat ustaviga muvofiq boshqa masalalarni ko'rib chiqish.

13.23. Minoritar aksiyadorlar qo'mitasining qarorlari oddiy ko'pchilik ovoz bilan qabul qilinadi. Minoritar aksiyadorlar qo'mitasining majlislari uning miqdor tarkibiga saylangan shaxslarning kamida to'rt dan uch qismi (3/4) hozir bo'lganda vakolatlidir.

13.24. Minoritar aksiyadorlar qo'mitasi a'zolarining soni jamiyat ustavida belgilanadi.

13.25. Minoritar aksiyadorlarning qo‘mitasi qabul qilingan qarorlar to‘g‘risida har yili aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishida hisobot beradi.

13.26. Minoritar aksiyadorlar qo‘mitasining raisi ushbu qo‘mita tarkibidan minoritar aksiyadorlar qo‘mitasining a‘zolari tomonidan ko‘pchilik ovoz bilan saylanadi.

13.27. Minoritar aksiyadorlar qo‘mitasining raisi minoritar aksiyadorlar qo‘mitasining vakolat doirasiga kiritilgan barcha masalalar bo‘yicha Jamiyatning hujjatlaridan foydalanish huquqiga ega.

13.28. Minoritar aksiyadorlar qo‘mitasining faoliyat ko‘rsatish tartibi qimmatli qog‘ozlar bozorini tartibga solish bo‘yicha vakolatli davlat organi tomonidan tasdiqlanadi.

13.29. Minoritar aksiyadorlar qo‘mitasi Jamiyatning xo‘jalik faoliyatiga aralashishga haqli emas.

13.30. Minoritar aksiyadorlar qo‘mitasining faoliyatiga Jamiyat Kuzatuv kengashining yoki ijroiya organining aralashuviga yo‘l qo‘yilmaydi.

XIV. KORPORATIV MASLAHATCHI

14.1. Jamiyat korporativ maslahatchisining faoliyati Jamiyat Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan nizom asosida amalga oshiriladi.

XV. JAMIYATNING BUXGALTERIYA HISOBI VA MOLIYAVIY HISOBOTI

15.1. Jamiyat qonun hujjatlarida belgilangan tartibda buxgalteriya hisobini yuritishi va moliyaviy hisobot taqdim etishi shart.

15.2. Jamiyatda buxgalteriya hisobining tashkil etilishi, holati va ishonchliligi, tegishli organlarga har yilgi hisobot va boshqa moliyaviy hisobotlar, shuningdek Jamiyatning rasmiy veb-saytida va ommaviy axborot vositalarida aksiyadorlarga, kreditorlarga taqdim etiladigan Jamiyat faoliyati to‘g‘risidagi ma‘lumotlar o‘z vaqtida taqdim etilishi uchun javobgarlik Jamiyat ijroiya organining zimmasida bo‘ladi.

15.3. Jamiyatning moliyaviy hisobotida ko‘rsatilgan va aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishiga taqdim etiladigan moliyaviy hisobotdagi, buxgalteriya balansidagi, foyda va zararlar hisobvarag‘idagi ma‘lumotlarning ishonchliligi mulkiy manfaatlari Jamiyat yoki uning aksiyadorlari bilan bog‘liq bo‘lmagan auditorlik tashkiloti tomonidan tasdiqlangan bo‘lishi kerak.

15.4. Jamiyatning yillik hisoboti aksiyadorlarning yillik umumiy yig‘ilishi o‘tkaziladigan sanadan qonunchilikda begilangan muddatda Jamiyatning Kuzatuv kengashi tomonidan dastlabki tarzda tasdiqlanishi lozim.

XVI. JAMIYATNI QAYTA TASHKIL ETISH VA TUGATISH

16.1. Jamiyatni kayta tashkil etish aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qaroriga ko'ra qo'shib yuborish, qo'shib olish, bo'lish, ajratib chiqarish va o'zgartirish shaklida amalga oshiriladi.

16.2. Qonun hujjatlarida belgilangan hollarda yuridik shaxslarni qo'shib yuborish, qo'shib olish yoki o'zgartirish shaklida qayta tashkil etish faqat vakolatli davlat organlarining roziligi bilan amalga oshirilishi mumkin.

16.3. Jamiyatning tugatilishi huquq va majburiyatlarni huquqiy vorislik tartibida boshqa shaxslarga o'tkazmagan holda Jamiyat faoliyatini tugatishga sabab bo'ladi.

16.4. Ixtiyoriy ravishda tugatilgan taqdirda, tugatilayotgan Jamiyatning Kuzatuv kengashi Jamiyatni tugatish va tugatuvchini yoki tugatish komissiyasini (bundan buyon matnda "tugatuvchi" deb yuritiladi) tayinlash to'g'risidagi masalani aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi hal qilishi uchun olib chiqadi.

16.5. Jamiyat Ixtiyoriy ravishda tugatilayotganda aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi Jamiyatni tugatish va tugatuvchini tayinlash xaqida qaror qabul kiladi.

16.6. Jamiyat sudning qaroriga ko'ra tugatilayotganda tugatuvchini tayinlash qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

16.7. Tugatuvchi tayinlangan paytdan e'tiboran Jamiyat ishlarini boshqarish bo'yicha barcha vakolatlar unga o'tadi. Jamiyat tugatilayotganda tugatuvchi Jamiyat nomidan sudda ishtirok etadi.

XVII. YAKUNIY QOIDALAR

17.1. Ustav bo'yicha kelib chiqadigan barcha nizo va kelishmovchiliklar aksiyadorlarning o'zaro kelishuvi yo'li bilan amaldagi qonun hujjatlari va ushbu ustavga asosan hal qilinadi.

17.2. Nizo va kelishmovchiliklarni muzokaralar yo'li bilan hal qilish imkoniyati bo'lmagan taqdirda, ular tegishli ravishda sud orqali hal qilinadi.

17.3. Mazkur Ustav O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida belgilangan tartibda davlat ruyxatiga olingan vaqtdan boshlab kuchga kiradi.

Jamiyat barcha aksiyadorlarga, ularga tegishli ulushlardan, daromad darajasi, jinsi, irqi, dini, millati, tili, ijtimoiy kelib chiqishi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar bir xildagi daxldorlikni kafolat beradi.

"O'zbekko'mir" AFD
bosh direktori




U. Dusmatov